



**BADIIY MATNDA FRAZEMALARNING LINGVOMADANIY  
XUSUSIYATLARI**

**(Muhammad Ali “Ulug‘ saltanat” asari asosida)**

*Shaxloxon Alimbayevna Tursinbayeva*  
*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU*  
*Tayanch-doktoranti*  
[shaxloxontursinbayeva@gmail.com](mailto:shaxloxontursinbayeva@gmail.com)  
**+998977824232**

**Annotatsiya.** Ma’lumki, frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o‘z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi. Ushbu tadqiqotimizda Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” asarida qo‘llanilgan frazeologik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, frazeologik birliklarning shakllanishida asosiy komponent vazifasidagi leksemalarga alohida e’tibor qaratiladi hamda ularning izohi tegishli lug‘atlardan keltiriladi. Lingvomadaniy jihatdan tadqiq qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** farzema, frazeologik birlik, shaxs komponentli, zookomponent, somatik komponent, lingvomadaniyat, xalq mintaliteti.

**Абстракт.** Известно, что фразеологизмы всегда косвенно отражают мировоззрение народа, устройство общества и идеологию своего времени. В данном исследовании анализируются лингвокультурные особенности фразеологизмов, применённых в произведении «Улуғ салтанат» писателя Мухаммад Али . Также особое внимание уделяется лексемам как основному компоненту образования фразеологизмов и дается их объяснение из соответствующих словарей. Лингвистически исследован.

**Ключевые слова:** фразема, фразеологизм, индивидуальный компонент, зоокомпонент, соматический компонент, лингвокультура, народный менталитет.

**Abstract.** It is known that phraseological units always indirectly reflect the worldview of the people, the structure of society and the ideology of their time. This study analyzes the linguocultural features of phraseological units used in "Ulug Sultanat" by Muhammad Ali. Special attention is also paid to lexemes as the main component of the formation of phraseological units and their explanation is given from the relevant dictionaries. Linguistically researched.

**Key words:** phrasa, phraseological unit, individual component, zoocomponent, somatic component, linguistic culture, folk mentality.

## **KIRISH**

Badiiy matn keng qamrovli tafakkur mahsulidir. O‘zida xalqning, millatning ongi, moddiy va ma’naviy madaniyati, tarixi, yashash tarzi, an’ana va urf-odatlarini, shaxs va jamiyatning ishonch – e’tiqodi kabi tushunchalarni qamrab oladi. Albatta, bu jarayon badiiy so‘z va uni ustalik bilan qo‘llay olishda yaqqol aks etadi. Badiiy matn ruhiyatiga, shaxsiyatiga, obraz chizgilariga nozik oro bera oladigan ana shunday lingvomadaniy birliklardan, lingvokulturemalardan biri frazema(ibora)lardir.

Bugungi kunda frazeologiya umumtilshunoslikda alohida soha sifatida shakllanib ulgurgan va o‘zining salmoqli o‘rniga egadir. Frazemalar orqali so‘zlovchining xilma-xil uslubiy ma’no anglatish niyati ta’sirchan o‘z ifodasini topadi. Kinoyalar, shama qilishlar, tahdid, po‘pisa, do‘q, og‘rinish, hazil-mutoyiba, qochirim, pardali gapirish, ma’noni kuchaytirib ko‘rsatish, ijobiy va salbiy baholash va boshqa uslubiy ma’no anglatish niyatlari iboralar orqali ta’sirchan tus oladi.

Frazemalar borliqdagi hodisalar, narsalar, xatti-harakatlar, holatlar, sezgi, tushunchalarning xususiyatlari bilan bog‘liq ravishda, ularning atamalari, tasvirlariga oid so‘zlar, ma’no anglatishlariga xos yo‘nalishlarda shakllansalar-da, ular butunlay ko‘chma ma’no tashiydilar, shu bilan nutqda ta’sirchanlikni yuzaga keltiradilar.

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

XX asrning 60-yillariga kelib, o‘zbek tilshunosligida ham turg‘un birikmlalarni tadqiq etish bilan shug‘ullanish keng yo‘lga qo‘yildi. Bu ishni birinchi bo‘lib Sh.Rahmatullayev boshlab berdi. U 1952-yil Moskvada “Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi obrazli fe’l frazeologik birliklarning asosiy grammatik xususiyatlari” mavzusidagi nomzodlik ishini himoya qilgan edi. Shundan keyin 50-yillarda Ya.Pinxasovning “Hamid Olimjon asarlarida frazeologik birikmalar”, A.Shomaqsudovning “Muqumiy satirasining tili”, M.Xusainovning “Yozuvchi Oydin prozasining frazeologiyasi” mavzusidagi nomzodlik ishlari maydonga keldi.

V.A.Maslova frazeologizmlarni tahlil qilib, ular haqida quyidagi gipotezani ilgari suradi:

1. Frazeologizmlarning aksariyatida aniqlanishi mavjud bo‘lgan milliy madaniyatning “izi” mavjud.
2. Frazeologik birliklarning ichki shaklida obyektiv olamning u yoki bu hodisalarini obrazli tasavvuri bo‘lgan madaniy informatsiya saqlanadi va u frazeologizmga milliy-madaniy bo‘yoq beradi.
3. Milliy-madaniy o‘ziga xoslikni aniqlashda milliy-madaniy konnotatsiyani ochish muhimdir [6].

Lingvokulturologiya fanining asoschilaridan biri, Moskva frazeologik maktabi rahbari V.N.Teliyaning yozishicha, tilning frazeologik tarkibi “lingvomadaniy jamoa milliy o‘zligini ko‘radigan ko‘zgudir” [10]. Aynan frazeologizmlar til egasining dunyoni, hodisalarni o‘ziga xos ko‘rishini namoyon etadi.

Sh.Rahmatullayevning “Nutqimiz ko‘rki” [8] nomli risolasi asosan frazeologizmlarning unga yondosh hodisalardan farqli hamda o‘xshash tomonlarini ilmiy jihatdan ochib berishga qaratilgan. Buni olimning shu risolasi yakunida frazeologizmga bergan ushbu ta’rifi va shu ta’rifga izohidan payqash qiyin emas: “Bittadan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilishi

jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so‘zga ekvivalent, yaxlitligicha ustama ko‘chma ma’no anglatuvchi lug‘aviy birlikka ibora deyiladi.

A.Mamatov “Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari” [5] nomli monografiyasi va shu asosda himoya qilingan doktorlik dissertatsiyasida o‘zbek tilshunosligida ilk bor frazeologiyaning til normasi va nutq madaniyati bilan bog‘liq muammolarini tadqiq etdi. Mazkur ishning so‘nggi bobi “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik norma va undan chetga chiqishning tiplari” deb nomlangan.

## NATIJALAR

Olimlar aniq ilmiy mezonlarga asoslanib, so‘zlarning barcha turdagi turg‘un birikmalarini emas, balki shulardan bir qismini frazeologik birlik sifatida tan oladilar. Frazeologik birlik bo‘lish uchun so‘zlarning turg‘un birikmasi obrazli ma’no, ko‘chma ma’no ajratishi shart. Frazeologik birliklardan (iboradan) yaxlitligicha anglashiladigan ma’no uning tarkibidagi so‘z-komponentlarga xos leksik ma’nolarning oddiy yig‘indisiga teng bo‘lmaydi, iboraning ma’nosi umumlashma ma’no, maxraj ma’no sifatida namoyon bo‘ladi.

Ma’no yaxlitligiga ega bo‘lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so‘zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko‘chma ma’nodagi barqaror birikmalar *frazeologizm(frazeologik birlikma)*lardir. Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kiriladi.
2. Ma’no yaxlitligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi. [9]

Shuningdek, Sh.Almamatovanning “O‘zbek tili frazemalarining komponent tahlili” nomli tadqiqot ishida frazeologik birliklarni komponent tahlil asosida o‘rganadi. Sh.Almamatova ishning birinchi bobida iboralarni uch turga bo‘lib izlanish olib boradi hamda ilmiy ishda komponent tahlilga tortiladigan va tortilmaydigan iboralar haqida ham qisqacha to‘xtalib o‘tadi. Ular quyidagilar:

1. Shaxs komponentli frazemalar;
2. Zoonim komponentli frazemalar;
3. Somatik komponentli frazemalar.

“Ayrim leksemalar *Daqyonusdan qolgan, Almisoqdan qolgan, chuchvarani xom sanamoq, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi*, yagona frazema tarkibida ishtirok etsa, *yurak, ko‘z, qo‘l* kabi somatik, *sichqon, tuya, it* kabi zoonimik, *tushmoq, o‘tmoq, tiqmoq* kabi harakatni ifodalovchi leksemalar o‘ntadan yuztagacha va undan ortiq frazemalarning tarkibida komponent sifatida qatnashadi” [2]. Bundan ko‘rinib turibdiki, somatizmlar – deb inson tana a‘zolari ishtirokidagi frazemalar kiritilsa, zoonimik iboralar tarkibiga esa – jonivorlar ishtirokidagi frazeologizmlar kiritiladi.

Bizningcha, bu tasniflanishga asoslangan holda tadqiqot olib borilsa, frazemalarning lingvistik xususiyatlarini ochish bilan birga ularning kulturologik jihatlarini ham yoritib berish ayni muddao bo‘ladi, lekin shuni ham hisobga olish kerakki, shaxs komponentli frazemalardan

ko‘ra somatik va zoonimik komponentli iboralar ancha unumdordir. Tadqiqotimizning obyektivi sifatida tanlangan Muhammad Alining “Ulug‘ saltanat” epopeyasidan olingan frazeologik birliklar yuqoridagi tasnif asosida tahlilga tortiladi.

No	Shaxs komponentli frazemalar	Zookomponentli frazemalar	Somatik komponentli frazemalar
1.	Kuyovni payg‘ambarlar siylagan	Sichqonning ini ming dirham (tanga)	Og‘ziga tolqon solib olmoq
2.	It yotish, mirza turish	Ichini it kemirmoq	Tuz-qatiq yalashmoq
3.	O‘zing uchun o‘l yetim	Sakning orqa oyo‘i/ Itning orqa oyog‘i	Devorning ham qulog‘i bor
4.	Bo‘zchining mokisiday	Ilon po‘st tashlaydi	Baxt qushi boshiga qo‘nmoq

*1-jadval*

Shaxs komponentli frazemalar – deb shaxs nomlari va otlari qatnashgan frazemalarga nisbatan ishlatiladi. Masalan, “Ulug‘ saltanat” asarida quyidagi iboralarni uchratishimiz mumkin. “*Kuyovni payg‘ambarlar siylagan*” – iborasida diniy rivoyatlarga ko‘ra, Muhammad alayhisalom o‘z kuyovi Hazrati Alini g‘oyat siylagan. Mazkur proverbial frazema shundan kelib chiqqan [11], shuningdek, madaniyatimizda kuyovlarni xon darajasiga ko‘tarilishiga ishora qilingan va bu madaniyatning bir parchasiga aylanib, keyinchalik xalq orasida “*Kuyov keldi, xon keldi*” shaklidagi variantning ham qo‘llanilinishini uchratishimiz mumkin. Bunda shaxs komponenti “*kuyov va payg‘ambar*” leksemalaridir. Asarda bu ibora Orzumulk oqa tilidan Amir Musoga qarata aytilgan. “*Har qalay ularga kuyovsiz. Kuyovni payg‘ambarlar siylaganlar axir. Ularni aldab-suldab, va‘dalar bersangiz, gapga kirishadi*”.

“*It yotish, mirza turish*” – yashash uchun hech qanday qulayliklar yo‘q. Bu frazema “*nomi ulug‘, supراسi quruq*” frazemasiga qisman ma‘nodosh bo‘la oladi. Xalqimizda shon-shuhrati, nomi mashhur bo‘lgan, ammo himmati yo‘q insonlarga nisbatan “*nomi ulug‘, supراسi quruq*” frazemasini ishlatilsa, “*it yotish, mirza turish*” frazemasini esa aslida ma‘lum lozim va mavqega ega, lekin turish-turmushi mavqeyiga xos bo‘lmagan holatda yashaydigan obraz ifodalaydi. Bu proverbial frazema metafora asosida paydo bo‘lgan. Unga ko‘ra, itlar har qanday joyda yurishi, duch kelgan joyda yotib-turishi, yashash holati kabilarni – “it” ning harakatlariga qiyoshlangan, “mirza” – tarixda biror bir vazifaga mas‘ul savodli, o‘qimishli shaxslarga, yohud yuqori tabaqali kishilarga nisbatan ishlatilgan leksemdir. Odatda hammadan oldin biror vazifaga shay turuvchi va ishlarining boshida bo‘luvchi “*mirza turish*” harakat-holatni qiyoslash maqsadida asos vazifasini o‘tagan. Bundan kelib chiqib, hammadan ko‘p ishlaydigan va hammadan kech yotib, erta turadigan insonlarga yoki mavqeyiga nomunosib hayot kechiradigan odamga nisbatan foydalaniladigan frazemaning shaxs komponenti – “mirza” leksemasidir. Ibora badiiy matnda aslzoda amirning dasht-u dalada qochoq hayot kechirayotgan rafiqasi tiliidan holatni obrazli ifodalashda qo‘llanilgan. “...Amir Muso xonadonida ahvol shu:

*bir joyda qo‘nim yo‘q, doim besaranjonlik, quvdi-quvdi, chop-chop, bamisli it yotish, mirza turish...*”

“O‘zing uchun o‘l yetim” – homiylik qiluvchisi yo‘q, hamma narsaga o‘z harakati bilan erishadigan odamga qarata aytilgan iboradir. Bu ibora tarkibidagi “*yetim*” so‘zi o‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ota-onasiz, yetim, yakka-yu yagona, noyob kabi ma‘nolarni bildiradi. O‘TILda bu haqida quyidagicha keltirilgan: 1. Otadan, onadan yoki har ikkovidan ajralgan. 2. Tashlab qo‘yilgan, e‘tibor berilmaydigan, qaralmaydigan shaxs yoki narsaga nisbatan qo‘llaniladi [4]. O‘zbek xalqi madaniyatida qadimdan farzand aziz ne‘mat hisoblanadi. Bu xalq orasidagi marosimlar, an‘ana va urf-odatlarda o‘z isbotini topgan. Biroq bu iborada esa kimsasiz, homiysiz farzandning boshqalar tomonidan e‘tibor berilmasligi, o‘z holiga tashlab qo‘yilishi va o‘z haqqi uchun o‘zi kurashishi to‘g‘risidagi xalqning falsafiy qarashi o‘z ifodasini topgan.

“Bo‘zchining mokisiday” – to‘xtovsiz, ko‘p marta ma‘nolarini izohlaydi. Farzema tarkibidagi bo‘zchi komponenti bo‘z to‘quvchi kosib, bo‘z bilan shug‘ullanuvchi shaxsni bildiradi. Moki esa to‘quv dastgohining qayiqchasimon anjomi, ya‘ni O‘TILda bunga quyidagicha izoh keltirilgan: 1. To‘quv do‘koni yoki dastgohining gazmolning o‘rishiga arqoq iplarini o‘tkazish uchun xizmat qiladigan g‘altagi. 2. Tikuv mashinasida ustki ip izmasiga pastki ipni o‘tkazib turadigan moslama, g‘altakcha [4]. Bo‘zchilik ip yigirish va mato ishlab chiqarish kasbi. Mato tayyorlash jarayonida moki asbobi orqali iplar yigiriladi va bu maxsus asbob bir joyda tez-tez va bir harakat bajaradi. Aynan mana shu o‘xshatish natijasida biror joyga to‘xtovsiz borish yoki murojaat qilishni izohlash maqsadida bu ibora xalq tilida faol qo‘llaniladi. Asarda ham

Somatik komponentli frazemalar tarkibi esa – inson tana a‘zolari qatnashgan iboralardan iborat. Yozuvchi o‘z asarida quyidagi somatizmlardan foydalanganligini ko‘rishimiz mumkin.

“**Og‘ziga** talqon solib olmoq” – sukut saqlamoq ma‘nosini bildirib, biron narsa so‘ralganda javob bermaslik holatining obrazli ifodalinish shaklidir. “Tolqon” – 1. qovurilgan don, quritilgan non va sh.k.dan tuyib tayyorlangan yemish. 2. Umuman tuyilgan har qanday narsa; poroshok [4]. Azaldan xalqimiz hech narsani uvol qilmaslik, isrof qilmaslikka qattiq amal qilishgan. Ayniqsa, bu ne‘mat aziz non bo‘lsa, har bir uvog‘ini non sifatida azizlashgan. Shundan, xalq orasida “*non ham non, ushog‘i ham non*” maqoli bejiz aytilmagan. Talqon esa suvi qochgan, eskirgan nondan tuyub qilinadigan tansiq taom bo‘lib, quruq bo‘lganligi uchun tanovul qilishda odam gapirishga qiynaladi. Mana shu holat iborada o‘z obrazli ifodasini topgan. Masalan, “*Abbos-bahodir hech qaysisiga javob bermadi. Uning odamlari xuddi **og‘izlariga talqon solib olganday churq etmasdilar.***”

Lingvomadaniy xususiyatga ega “*tuz-qatiq yalashmoq*” frazemasini “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da kimsaning boshqa bironing yedirgan – ichirgan ovqati, *tuz bermoq, tuzini yemoq (ichmoq)* ma‘nosini ifodalashi ko‘rsatilgan: *Tuz-namak bo‘lmoq* – ma‘lum muddat hamtovoq bo‘lmoq, topganini kimsa bilan o‘rtada baham ko‘rmoq; *osh-qatiq bo‘lmoq* – munosabatlari juda yaxshi bo‘lmoq, do‘stlashmoq, o‘zaro yaxshi kelishmoq belgisini ifodalamoqda. Bu

iboraga zid ma‘noda *tuz ko‘r qilgur, tuzini yeb tuzlig‘iga tupurmoq, tuzlug‘ini bulg‘amoq* frazeologik birliklari mavjud bo‘lib, ular nonko‘rlik qilmoq, yaxshilikka yomonlik qilmoq frazeologik komponentlar bilan sinonimlik qila oladi. “*Apoq-chapoq bo‘lmoq*” iborasiga nisbatan “*tuz-qatiq yalashmoq*” iborasida obrazlilik yaqqol ko‘zga tashlanib, bu asarning badiiy qimmatiga o‘z hissani qo‘shgan.

“ – *Shibirg‘on hokimi bilan tuz-qatiq yalashqonsiz, yaqinsiz, – pichingsiz, to‘g‘ri ko‘ngilda dedi Amir Temur*”.

O‘zbek tilidagi “*devorning ham qulog‘i bor*” iborasi zamirida ham so‘z tabusi bilan bog‘liq qarashlar mujassamlashgan. Animistik tasavvurga ko‘ra, tevarak – atrofdagi hamma narsa – hodisalar jonli deb qaralganligi bois, uy egalari yovuz kuchlar “*eshitib qolmasin*” (ya‘ni odamlarning gapini “*eshitgan*” devor xabar yetkazmasin) degan maqsadda ayrim tushunchalar o‘rniga tabulashtirilgan so‘zlar qo‘llanganlar [3]. Yuqoridagi fikrlarga qo‘shimcha sifatida shuni ayta olamizki, keyinchalik bu qarash insonlar orasida aytilmasligi kerak so‘zlar yoki boshqacha nomlash orqali ulardan hayiqish, yaxshilikka yo‘yish, hamisha ehtiyotkor bo‘lish kabi madaniy hodisalarga yo‘l ochgandir. Masalan, “*Odilshoh-jaloyir “Bu yerda hech kim yo‘q”, dedi-yu, ammo devorning ham qulog‘i bor, qabilidagi mashhur iborani unutdi. Shu palla sog‘onaning oyog‘i tomonidagi kattagina darcha ortida kimdir bu gaplarni eshitib turardi. Bu Axiy Jabbor-bahodir edi.*”

“*Baxt qushi boshiga qo‘nmoq*” – iborasi baxtiyorlik, baxtlilik kabi ma‘no izohlaydi. Frazemadagi “*baxt qushi*” komponenti o‘zbek xalqi madaniyatining muhim belgisi sanaladi. Avvalo, xalq og‘zaki ijodi namunalariga diqqat qaratilsa, bu qush humo qushidir. Xususan, “*Kuntug‘mish*” dostonida bor-budidan, saltanatidan, suyuqli yori hamda farzandlaridan ayrilib qolib, begona bir o‘lkada devonayi mashrab holatida umr o‘tkazayotgan bosh qahramon Kuntug‘mishning boshiga uch marotaba humo qushi kelib qo‘nadi. Shu voqeadan keyin podshohsiz qolgan o‘lka taxtiga Kuntug‘mish podshoh bo‘lib keladi. Bu yerdagi, aynan, qushning boshga qo‘nishi orqali esa insonning eng qadrli a‘zosi bosh bo‘lib, u orqali davlatni adolatli boshqarish, insonlarga sardor, bosh bo‘lish ifodalanadi. Masalan, “*Endi yelkasiga baxt qushi qo‘nib, yurt boshiga kelay deb turganda, belini bog‘lab hurmat-xizmatini qiladigan qiblagohi otasi, bosgan izi jannat onasi yonida yo‘q...*”

Zookomponentli frazeologik birliklar – turkiy tillarda odatda tashqi ko‘rinish, jismoniy sifat, intellekt, xarakter belgilari, inson faoliyati kabilarni o‘zida aks ettiradi. Bunday ma‘nolarni, asosan, metafora asosiga qurilgan maqol, aforizmlar va ko‘chma ma‘nodagi proverbial iboralarda ko‘rishimiz mumkin.

“*Ulug‘ saltanat*” asarida yovdan, dushmandan qochish, yashirinish, qochib qutilgani joy topa olamay qolishlik ma‘nosini obrazli ifodalash maqsadida “*sichqonning ini ming dirham*” frazemasidan foydalanilgan. “...*Mana endi Movarounnahr hukmdori, kechagina ulkan mamlakatning sohibqarori bugun torgina kunjakda yolg‘iz, tanho, sichqonning ini ming dirhamga sotib olishga tayyor, pusib o‘ltiribdi...*”. Bu frazemada asosiy zookomponent “*sichqon*”. Aslida olib qaraganda, bu frazemaning yana bir variantdoshi “*Sichqonning ini ming*

*tanga*” shaklida ham uchratishimiz mumkin. Birinchi shaklda ya’ni *dirham* so‘zining ishlatilishi, avvalo, insonni tarixiy davr kaloritiga olib kirish bo‘lsa, ikkinchi jihati tarixiy faktdir. Tarixiy davr pul birligi, moddiy muomala vositasi xususida va o‘z davrida bu so‘zning keng ommalashganligi haqida ham ma’lumot beradi. *Tanga* so‘zining ishlatilishi esa umumiylikni pul, aqcha kabi vositalarni bildirgan. Asarda har ikki ibora ham birdek faol qo‘llangan. “*Birinchiidan, bosqinchini yurtidan quvib chiqardik, sichqonning ini ming tanga bo‘lib shataloq otib qochdi, ikkinchiidan, dushman ayyor va quv, tog‘larning har kavak-kandiklari-yu cho‘lning har puchmog‘ini yaxshi biladi, uni uzoq izlashga to‘g‘ri keladi, fursat ketadur*”.

Ruhan azoblanmoq, qiynalmoq ma’nolarini ochib berish uchun yozuvchi “*ichini it kemirmoq*”, “*ichini it tirnamoq*”, “*ichini it tatalamoq*” kabi frazemalardan foydalangan bo‘lib, bu frazema kitobxon ko‘z o‘ngida hasad, qayg‘urish, nafrat va o‘pka-gina kabi semalarni bir varakayiga jonlantira oladi.

“*...Ikki amir nima qilishlarini bilmay, ilojsizlikdan ichlarini it kemirganicha, igna ustida o‘ltirganday bezovta edilar...*”

“*Sakning orqa oyog‘i*” yoki “*itning keyingi oyog‘i*” bo‘lmoq farzemasi, rivojlanish jarayonida eng keyinda qolganlik ma’nosini bildiradi. Shu kabi ma’no anglatuvchi qatorlarni Mahmud Qoshg‘ariyning “*Devoni lug‘at it-turk*” asarida ham uchratishimiz mumkin. “*O‘kuz azaqi bo‘lg‘incha, buzag‘u bashi bo‘lsa yik*” (*Ho‘kizning oyog‘i bo‘lguncha, buzoqning boshi bo‘lgan yaxshiroq*). U “*mustaqillik bo‘ysunishdan yaxshi*” degan ma’noda qo‘llanadi.

“*- Abu Is‘hoq janoblari bag‘oyat rost aytdilar, - bosiq dedi shayx. - Axir sakning orqa oyog‘i bo‘lib yurish bandayi musulmong‘a noravo qismatdur.*”

“*Eshak ham eshak, - yonayotgan olovga yog‘ sepdi yana Abu Is‘hoq yasuriy. - Bu ahvolda itning keyingi oyog‘i bo‘lib qolish ham hech gapmas, ha.*”

Yuqoridagi, frazeologik birlikning “*sak*” komponenti etimologik jihatdan Arshak – er sakning o‘zgargan shakli bo‘lib, jasur, mard, bahodir saklar ma’nosini beradi [1].

“*Ilon po‘st tashlaydi*” – chiday olmaslik, toqat qilib tura olmaslik (gapga) ifodasiga ega bo‘lib, asarda ayyorlik, yozuvlikning qo‘rqinchli natijasi oqibatini aks ettirishda Amir Sayfiddin neko‘z nutqi tarkibida qo‘llanilgan.

“*- Savash maydonidan chopar keldimu?*”

“*- Yo‘q, Amir Sohibqiron! Hali chopar yo‘q. Ammo bir yoqimsiz gap eshitdim. Ilonlar po‘st tashlaydir.*”

Ibora tarkibidagi “*ilon*” komponenti o‘zbek xalqi madaniyatining so‘z tabusida o‘ziga xos sifatga egadir. Xususan, tabu asosiga qurilgan “*yashirin til*”da so‘zlashgan qadimgi ajdodlarimiz ilonning shaklan *gavron*, *tayoq* yoki *arg‘amchiga* o‘xshashligi asosida ham qator evfemik leksemalarni ishlatishgan [3]. Bundan anglashiladiki, so‘zning joni yoki magik xususiyati borligiga e’tiqod qilgan holda xalqimizda bu jonivor o‘z nomi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytilmagan, biroq iboraga diqqat qiladigan bo‘lsak, ilonning tullashi, ya’ni po‘st tashlash kabi

tabiiy biologik jarayon metaforik tashqi o‘xshashlik asosida mohirlik bilan inson ruhiy holatidagi toqat qila olmaslik, chidab tura olmaslikni ochib berishda samarali ishlatilgan.

### **MUHOKAMA**

Yuqorida keltirilgan namunalarga asoslanib fikr bildirilsa, o‘zbek va jahon tilshunos olimlarining frazeologik komponentli birlikmalarning tadqiqida A.Mamatovning frazeologizmlarga oid ta’rifi har tomonlama iboralarning xususiyatlarini to‘liq ochib berishda muhim o‘rin tutadi va shu bilan birga frazeologik birliklarni aniqlashda A.Mamatovning kriteriyalari bugungi kunda asosiy mezon sifatida tilshunoslikda muhim rol kasb etadi. Ushbu maqoladagi frazeologizmlar ham A.Mamatovning frazeologizmlarga oid mezonlari asosida tahlilga tortildi. Shuningdek, tilshunos olim Sh.Almamatovning iboralarga oid tasnifi iboralarni keng qamrovli tarzda o‘rganishga katta hissa qo‘shdi, bu jarayonda tanlangan badiiy asardagi iboralar uchta tasnif asosida tadqiq qilindi. Albatta, bu tasniflar mavjud iboralarning barchasini qamrab olib tahlil qilish va guruhlash uchun yetarli emasdir.

Shuni ham alohida e’tirof etish kerakki, Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” frazeologik komponentli birliklarning lingvokulturologik va etimologik jihatlarini ochib berishda, izlanish olib borishda katta ahamiyatga egadir.

### **XULOSA**

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, til – bu material va vosita – “badiiy adabiyotning birinchi elementi” (M.Gorkiy ) sifatida milliy madaniyatning asosiy shakllaridan biri sanaladi. Shu bilan bir qatorda, badiiy adabiyot milliy adabiy tilning shakllanishi va rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Masalaga ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, badiiy adabiyot tilini o‘rganish davr tili umumiy qonunlarini bilish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Ma’lum bir xalqning til xususiyatlarini o‘rganishda o‘sha xalqning tili bilan birgalikda madaniyatini ham o‘rganish va bu jarayonda madaniyatning o‘ziga xos jihatlarini ochib berishda lingvomadaniy birliklardan frazeologik komponentli birliklar muhim o‘rin egallaydi. Bu tadqiqot ishimizda frazeologizmlarni komponent tahlil qilish orqali ulardagi madaniyatga xos bo‘lgan o‘zga xosliklarning tilda aks etishini ko‘rsatishdan iboratdir.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Abdurahmonov, A. Turkiy xalqlar og‘zaki ijodi. Samarqand, 2006. 59-bet.
2. Almamatova, Sh.T. O‘zbek tili frazemalarining komponent tahlili. Toshkent, 2008. 16-bet.
3. Jo‘rayeva, M. Mif, marosim va topishmoq. Monografiya. Toshkent, 2021. 90-bet.
4. Madvaliyev, A., & Xudayberganova, D. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2022.
5. Mamatov, A. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. – Toshkent, 1991.
6. Маслова, В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. –М.: Издательский центр «Академия», 2001. –С. 82.



7. Rahmatullayev, Sh. Nutqimiz ko‘rki. O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. Toshkent, 1970. 9-bet.
8. Rahmatullayev, Sh., Mahmudov, N., Xolmanova, Z., O‘razova, I., & Rixsiyeva, K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Toshkent, 2022. 7-bet.
9. Образные средства русского языка / Под ред. В.Н.Телия. –М., 1995.
10. Shomaqsudov, Sh., & Shorahmedov, Sh. Ma’nolar maxzani. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2001. – 186 bet.